

TALABALARNING MULOQOT MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHDA TA'LIM SHAKLLARINI TANLASH

Eminova Zarina Karim qizi

*Axborot texnologiyalari va menejment
universiteti talabasi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada ta'limda og'zaki nutq ko'nikmalarini shakllan-tirishda "Muloqot" texnologiyasining o'rni va undan foydalanishning amaliy natijalari xususida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: texnologiya, usul, amaliy natija, muloqot, innovatsion usullar, mavzu, bosqich, bahs-munozara, muammo, muloqot yechimi, matn bilan ishlash, og'zaki nutq, yozma nutq.

Respublikamizda bo'layotgan tub islohatlarning asosida komil insonni voyaga yetkazish va tarbiyalash masalalari turibdi. Tarbiyaning negizi bo'lgan ta'lim tizimidagi o'zgarishlarning barchasi yosh avlodga mukammal bilim berish va Respublikamiz rivojida o'zining munosib o'rnini egallashlariga ko'maklashishdan iboratdir. Ta'lim sohasidagi bunday o'zgarishlar yosh avlod tarbiyasida ta'lim beruvchilarning sifati, o'qitish tizimidagi yangi qarashlar asosida dars berishlari ham nazarda tutilgan. Shuning uchun ham Respublikamizda o'qitish sifatini yana-da yaxshilash uchun ta'lim beruvchilarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish kurslarida zamon talablariga mos holda bilim olishlariga barcha shart-sharoitlarning yaratilishi, bejiz emas. Ta'limda interfaol usullar va innovatsion texnologiyalardan foydalangan holda dars o'tish bugungi kunda yangilik hisoblanmaydi. Chunki rivojlanish davrida barcha sohalarida bo'lgani kabi ta'limda ham dars o'tishning zamonaviy metodlaridan, o'qitishning barcha usullaridan o'rinli foydalangan holda olib borish, ta'lim beruvchilarning doimiy amalga oshirib kelayotgan ishlaridan biridir. Bugungi kunda barcha ta'lim yo'nalishlarida o'qitilayotgan fanlar bo'yicha interfaol usullardan foydalangan holda dars olib borilmoqda. O'qitish tizimida bunga yetarlicha shart-sharoitlar yaratilgan va yaratilmoqda. O'qituvchilar shiddatkorona hayot tarziga mos holda dars berish lozimligini ongli ravishda anglab yetishgan. Shuning uchun ham darslarda innovatsion pedagogik texnologiyalar va interfaol usullardan foydalangan holda darslar tashkillashtirilgan.

Til, nutq va madaniyat tushunchalarining har biri jamiyat va til taraqqiyoti mobaynida uzluksiz davom etgan o'zaro bog'liqlik natijasida til madaniyati va nutq madaniyati deb atalgan yangi tushunchalarning, yangi ilm sohalarining yuzaga kelishiga sabab bo'ldi. Til, nutq va madaniyat insonsiz mavjud bo'lmaganidek, ularsiz insonning o'zini ham tasavvur qilib bo'lmaydi. Til ijtimoiy mahsulot, lisoniy tizim, undan inson bolaligidan boshlab foydalanadi, u orqali fikrlashni o'rganadi. U yoki bu hodisalarni odamlar o'z jamiyatida shakllangan lisoniy ko'nikma va

mevorlar asosida qabul qiladi. Dunyo manzaralari o'rtasidagi tafovut ham tillar qanchalik bir-biridan farq qilsa, shu darajada turlicha bo'ladi. Vilgelm fon Gumboldtning mazkur gaplari tilning mohiyatini yanada teranroq anglashga yordam beradi: *"Tillarning xilma-xilligi aslo muayyan bir narsani turlicha tovushlar bilan ifodalash emas, balki bu narsani ko'rishning farqliligi natijasidir"*. Haqiqatan ham, bolalikdan egallangan ona tili har bir millatning o'ziga xos betakror madaniyati va ruhiy olamining shakllanishi bilan chambarchas bog'liqdir. Millat uchun ishlab turgan til uning madaniyatining bir qismi hisoblanadi. Madaniyatning o'zi esa nutq madaniyati, demak, jamiyatning tilga munosabati bilan ham chambarchas bog'liq bo'ladi. Til jamiyatga nisbatan ham olib qaralganda, o'ziga xos turli vazifa-larni bajaradi va bu, albatta, insonning nutqiy faoliyatida o'z aksini topadi.

Tilning kommunikativlik vazifasi odamlar o'rtasida uning muloqot vositasi sifatida xizmat qilishini talab etadi. Tilning bunday xususiyati antik davrlardan, ya'ni notiqlik san'ati yaratilgandan beri ma'lum bo'lgan. Tilning fikr yaratish va ifodalash vazifasi til strukturalarining tafakkur, fikrlash kategoriyalari bilan bog'liqligi orqali aniqlanadi. Nemis tilshunosi Gumboldt aytganidek, "til doimo fikrga hamroh bo'lishi kerak". Fikr ham tildan ortda qolmasdan uning bir unsuri-dan keyingsiga yetib olishi va tilda uning bog'liqligini ta'minlovchi barcha narsalar orqali o'z ifodasini topishi lozim. Yaxshi nutq fikr bayonining aniqligi, tushunarliigi, mantiqiy ketma-ketligi bilan ajralib turadi. Shuning uchun ham tilning kommunikativlik vazifalarini ilmiy va nazariy jihatdan tahlil eta olish va ulardan o'rinli foydalanish imkoniyatiga ega bo'lishimiz lozim.

Bunday jarayon o'qitish tizimidagi eng muhim vazifalardan biri sifatida e'tirof ham etilgan. Chunki bugungi kun o'qituvchisi dars samaradorligiga eri-shishda "Aqliy hujum", "5 minutlik esse", "Charxpalak", "Assesment", "Bume-rang", "Tushunchalar tahlili", "Rezyume", "Baliq skleti", "Domino", "Beshinchisi ortiqcha", "Muammo", "Xayoliy xarita", "Zinama-zina", "Bilits-so'rov" kabi turli xil interfaol usullar va pedagogik texno-logiyalardan o'rinli foydalana olish texnikasiga ega bo'lishlari zamon talabiga aylangan. Ushbu maqolada "Nutq madaniyati", "O'zbek tilining amaliy uslubiyati", "O'zbek tili" fanlarida mavzu tahlilida foydalanish mumkin bo'lgan innovatsion texnologiyalar va turli xil interfaol usullarning talabalar og'zaki nutqini shakllantirishdagi amaliy o'rni xususida fikr yuritmoqchimiz. "Nutq madaniyati" fanida "Notiqlik mahorati sinovi" darslaridan ko'proq foydalanish va bu jarayonda zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida dars o'tish o'qituvchi uchun ham talaba uchun ham qiziqarli va samarali natija beradi. Masalan, zamonaviy pedagogik usullardan biri "Muloqot" texnologiyasidan ham o'rinli foydalanish mumkin. Bu texnologiyaning o'qitish tizimidagi o'rni va qulay-

ligi talabalarning og‘zaki nutqini erkin ifodalashga amaliy yordam berishidir. “Muloqot” texnologiyasining maqsadi talabalarda muloqot uchun tanlangan mavzuni o‘z fikrlari orqali og‘zaki so‘zlab berishlariga qaratilgan. Bu texnologiya talabalarning og‘zaki nutqini shakllantirish va erkin fikr ifodalash ko‘nikmasiga ega bo‘lishlari uchun yordam beradi. Shuningdek, o‘z nutqi ustida ishlashlariga ko‘maklashadi. Ko‘proq adabiy tilda og‘zaki fikr ifodalashga undaydi.

O‘qituvchi darslarda “Muloqot” texnologiyasini qanday tashkil etishi mumkin? Biz bilamizki, “Muloqot” texnologiyasini o‘tkazishning bosqich-lari mavjud. Shuning uchun ham undan foydalanishning ketma-ketligi ta’lim beruvchi tomonidan reja asosida shakllantirilgan bo‘lishi kerak. Agar o‘qituvchi “Muloqot” texnologiyasidan foydalanishning rejasini shakllantirib olmasa, unda ko‘zlangan maqsadga erishishi qiyin bo‘ladi. “Muloqot” texnologiyasidan foydalanishni bir mavzu yuzasidan tahlil etib ko‘ramiz. “Muloqot” texnologiyasini o‘tkazishning birinchi bosqichida o‘qituvchi guruh talabalarini ikki kichik guruhga yoki (*agar guruhda 15 tadan ortiq bo‘lsa*) uch kichik guruhga bo‘lishi kerak. Bunda talabalarning kichik guruhlardagi soni kam bo‘lganligi sababli guruh tarkibidagi talabalarning barchasi o‘z fikr mulohazalari bilan ishtirok etish imkoniyatiga ega bo‘lishadi. “Nutq madaniyati” fanida “Notiqlik san’ati turlari” mavzusini o‘tishdan oldin talabalarga shu mavzu bo‘yicha savollar bergan holda auditoriyani jonlantirib olish kerak. Bu jarayonda o‘qituvchi:

1. G‘arb notiqlik vakillarini bilasizmi?
2. Sharq notiqlik vakillarini bilasizmi?
3. Ularning notiqlikka qo‘shgan hissasi xususidagi fikrlaringiz?
4. Ko‘zga ko‘ringan va notiq sifatida e’tirof etilgan notiqlarni sanab bering?
5. Ularning notiqlik xususidagi qaysi fikrlarini keltira olasiz?
6. Siz bilgan notiqning qaysi asarlari bor va unda notiqlik xususida qanday fikr bergan? kabi savollarni beradi.

Bu savollarni o‘qituvchi tarqatma materiallardan foydalanib yoki doskaga yozgan holda ham berishi mumkin. Bunday savollar tizimini yanada kengaytirib borish mumkin. Shunda guruh o‘rtasida o‘zaro savl-javob shakllanadi. Talabalar o‘zaro o‘rtoqlashgan holda o‘qituvchi tomonidan o‘rtaga tashlangan savollar yuzasidan bermoqchi bo‘lgan fikrlarini aniqlashtirish maqsadida bir-birlaridan so‘rashadi. Bu jarayon ham o‘yla-izlan-top-fikr ber shaklida bo‘ladi. Bunda o‘qituvchi tomonidan berilgan savolga talaba, avvalo, o‘ylaydi, aqliy tafakkurida mavjud manbalarni tiklaydi, fikr yuritadi, ikkilangan holatlarda yonidagi o‘rtog‘idan so‘raydi va yana mavzu yuzasidan bilimlarini kengaytiradi va bir to‘xtamga kelgach, og‘zaki nutqi orqali javob beradi. “Muloqot”ning birinchi bosqichida mavzu

yuzasidan berilgan savollarga talabalarning aqliy tafakkuridagi mavjud bilimlari tiklanadi, to'ldiriladi va nutqqa chiqarishga tayyorlanadi. Daftoriga fikrlarini yozma shakllantirib olishlari ham mumkin. Bu jarayon yozma savodxonligi uchun ham muhim hisoblanadi. "Muloqot" texnologiyasining ikkinchi bosqichida o'qituvchi tomonidan berilgan savollar asosida talabalar turli materiallarni to'playdi. Agar beriladigan savollar keyingi darsda tahlil etiladigan mavzu yuzasidan bo'lsa, unda uyga vazifa sifatida ham berish mumkin. Shunda talabalar turli slaydli ko'rishlarni ham shakllantirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Berilgan mavzu yuzasidan aytmoqchi bo'lgan fikrlarini aniq dalillar, misollar asosida prezintatsiya shaklida tayyorlab keladi va og'zaki nutqi orqali himoya qiladi. Guruhning qolgan ishtirokchilari ham o'z fikrlarini aytishlari va to'plangan ma'lumotlarga qo'shimcha sifatida kiritishlari ham mumkin. "Muloqot"ning uchinchi bosqichida guruhlar tomonidan tayyor bo'lgan materialni bir talaba himoya qiladi. Birinchi talaba tomonidan aytilmay qolgan manbalarni guruhning qolgan vakillari to'ldirishlari ham mumkin. Guruh talabalari tomonidan aytilgan har bir fikr (*ma'qul topganlarini*) umumlashtirishadi va yaxlit bir matnga aylantirishadi. "Muloqot"ning to'rtinchi bosqichida o'qituvchi guruhlarining boshqasiga mavzu yuzasidan savollarga tayyorlagan javoblarini tinglaydi (*chunki kichik guruhlar soni 2 yoki 3 ta bo'lishi mumkin*) va talabalarning fikrmulohazalarini eshitadi. Mavzu yuzasidan to'plangan materiallarni umumlashtiradi. "Muloqot"ning beshinchi bosqichida esa mavzu yuzasidan guruh talabalari o'zaro bir-birlariga savollar berishadi. Himoya qilgan kichik guruhlarining javoblari to'ldiriladi. O'qituvchi bu jarayonda faqat kuzatadi va auditoriyada ortiqcha shovqin bo'lmasligini nazorat qiladi. Darsning sifatini ham inobatga olishi kerak bo'ladi. Talabalar tomonidan aytilgan fikrlar, tahlillar, maqsadga yo'naltirilgan bo'lishi kerak. "Muloqot"ning oltinchi bosqichida esa o'qituvchi har ikki (*yoki uch*) guruhlarining savollarini, aytgan fikrlarini umumlashtiradi. Shuningdek, "Muloqot" texnologiyasidan foydalanganda o'qituvchi o'z fikri bilan ishtirok etgan talabalarning qarashlarini mavzu tomon maqsadli yo'naltirib boradi. Chunki talabalar mavzu chegarasidan chiqib ketishlari ham mumkin. Shuning uchun o'qituvchi talabalar tomonidan berilgan har bir javobni yo'naltirib boradi va kichik guruhlar tomonidan mavzu yuzasidan berilgan javoblarga o'z munosabatini bildiradi, to'ldiradi va yakunlaydi. Eng yaxshi javob bergan talaba (*yoki guruh*), mavzuni yoritgan talaba (*yoki guruh*), mavzudan chiqib ketgan talaba (*yoki guruh*), sof adabiy tilda fikr ifodalagan talaba (*yoki guruh*) kabi javoblarni tahlil etadi. Shuningdek, har bir talabani (*guruhni*) baholaydi, ularning bergan fikrlarini qo'ygan bahosiga qarab izohlaydi. Bu esa guruhlar o'rtasida baholashga bo'lgan norozilikning oldini oladi. "Muloqot" texnologiyasining afzalligi shundaki,

o'qituvchi o'tilgan mavzuni mustahkamlash uchun ham yoki o'tmoqchi bo'lgan mavzuni talabalarga eslatish uchun va nazariy ma'lumotlarni berish oldi-dan ham tashkil etishi mumkin. Agar o'tilgan mavzu yuzasidan tashkil etilsa, unda o'qituvchi tomonidan mavzu yuzasidan berilgan nazariy bilimlar mustahkamlanadi. Agar o'tilmoqchi bo'lgan mavzu yuzasidan foydalanilsa, unda talaba-larning o'qituvchi tomonidan beriladigan nazariy ma'lumotlarni to'g'ri anglab olishlariga yordam beradi. Chunki o'tiladigan mavzu yuzasidan ular uyda tayyor-lanib kelishadi va olgan nazariy bilimlarni mustahkamlaydi. Og'zaki nutqi orqali o'z fikrini adabiy tilda yoritib berish imkoniyatiga ega bo'lishadi. Dars ham o'zaro muloqotga asoslangan holda olib boriladi. Bizningcha, "Muloqot" texnologiya-sining asosida shaxs, muammo, munosabat, savol, javob, nutq, erkinlik nazariyasi mavjud.

Demak, shaxs – talaba, muammo-o'tilishi kerak bo'lgan mavzu, munosabat – erkin fikrlashga undash, savol-talabani mavzuga jalb etuvchi savollar, javob-talabani erkin mulohazasi, nutqadabiy tilda erkin, og'zaki fikrlash kabi nazariy va amaliy qarashlar tizimi mavjud bo'lib, bularning barchasida komil insonni kamolga yetkazish, tarbiyalash mujassamdir. Shunday ekan o'qituvchi har bir darsini munozaralarga boy tarzda o'tkazishga harakat qilishi va shunga erishi-shi zarur. Qiziqarli va erkin mulohazalarga boy darsning samaradorligi ham keng-roq bo'ladi va talabalarning fanga bo'lgan qiziqishlari ortadi, og'zaki nutq ko'nik-malari shakllanib boradi. Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, "Muloqot" texnologiyasidan "Nutq madaniyati", "O'zbek tilining amaliy uslubiyati", "O'zbek tili" fanlarida foydalanilsa, maqsadga muvofiq bo'ladi, shuningdek, barcha mavzularni yoritishda samarali natija beradi. Talabalarning og'zaki nutqi shakllanadi va o'z fikrini erkin berish imkoniyati tug'iladi. Har qanday munozaralarda tortinmasdan fikr bera olishlariga erishiladi. Erkin fikrlash, erkin qarashlar, erkin nutq egasi kelajakda o'z ish faoliyatini mustaqil holda erkin olib borishi, jamiyatning qaysidir sohasiga o'zining munosib hissasini qo'shishi mumkin. Bularning barchasi esa ta'lim sohasida qilinayotgan tub islohatlarning natijalaridan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. R.Ishmuhammedov, M.Yuldashev. Ta'lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar. Toshkent, 2013 yil.
2. N.Jiyanova, O.Mo'minova. Nutq madaniyati, Toshkent, "Navro'z" nashriyoti, 2019 yil.
3. Saodat Sultonsaidova, O'lmas Sharipova. O'zbek tili stilistikasi. Toshkent, 2009 yil.
4. E.Qilichev, B.Qilichev. Nutq madaniyati va uslubi asoslari. Buxoro, 2002 yil.
5. Guzalkhan M. CREATIVE PERSON AND THE HARD WORK OF CREATIVITY //Euro-Asia Conferences. – 2021. – T. 4. – №. 1. – C. 239- 240.

6. S. Dalimova, Sh.Kuziev, G.Umarova, G.Mukhammadjonova, M.Yunusova, N.Khamdamova, F.Eshboev. Influence of the supramolecular complex of glycyrrhizic acid with quercetin on age-related functional changes in rat brain mitochondria. *Plant Cell Biotechnology and Molecular Biology* 21(45&46):63-73; Y. 2020
7. Mukhammadjonova, Guzalkhan. "Problems Of Creative Human Concept And Artical Interpretation." *The American Journal of Social Science and Education Innovations* 3.11 (2021): 1-6.
8. Ибрагимов Х., Абдуллаева Ш. Педагогика. Ўқув қўлланма. –Т., Фан, 2004. - 182 б
9. Абдуллаева, Ш. А., & Абдусаматова, Ш. А. (2019). Профилактика правонарушений среди несовершеннолетних учащихся. *Молодой ученый*, (5), 154-156.
10. Абдуллаева, Ш. А., & Зайнитдинова, М. А. (2018). Совершенствование качества образования в системе переподготовки и повышения квалификации педагогических кадров. *Научный результат. Педагогика и психология образования*, 4(3)
11. Barziyev, O, N. (2021) Traditional poetic series associated with the name of Fergana. *Scientific journal of Fergana State University* 3 (3), 108-114
12. Rakhmonova Bakhora Kakhorovna, Marupova Madina Khikmatullayevna, & Toshtemirova Mokhira Makhmud kizi. (2023). IMPROVING THE SURGICAL METHOD OF SCAR MICROSTOMY. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 11(9), 300–304. Retrieved from <https://www.giirj.com/index.php/giirj/article/view/5572>
13. Yuldashev Sanjarbek Arslon o'g'li. (2023). The Solution of Economic Tasks with the Help of Probability Theory. *Texas Journal of Engineering and Technology*, 26, 26–29. Retrieved from <https://zienjournals.com/index.php/tjet/article/view/4654>
14. Khayrullaevna, K. G. (2020). The functions of nonverbal means in dialogic speech. *Journal of Critical Reviews*, 7(15), 6174-6183.
15. Barziyev, O, N. (2021) Фарғона номи билан боғлиқ анъанавий поэтик туркумлар. *НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК. ФерГУ* 3 (3), 108-114